**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YAXSHIYEV ULUG‘BEK TURDALIYEVICH

YADRO MUHITIDAGI ADRONLAR: KIRAL SOLITON ORQALI YAQINLASHISH

01.04.02 – Nazariy fizika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 539.14; 539.125; 539.126

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

YAXSHIYEV ULUG‘BEK TURDALIYEVICH

YADRO MUHITIDAGI ADRONLAR: KIRAL SOLITON ORQALI YAQINLASHISH

01.04.02 – Nazariy fizika

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/FM214 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus (qisqacha annotatsiya), ingliz) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nuu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Musaxanov Mirzayusuf Mirzamaxmudovich
Fizika-matematika fanlari doktori, akademik
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Rasmiy opponentlar:

Irgaziyev Baxadir Fayzullayevich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Usmanov Pazlitdin Nuritdinovich
Fizika-matematika fanlari doktori, professor
Namangan Muhandislik-Texnologiya Instituti

Seung-il Nam
PhD, professor
Pukyong Milliy Universiteti, Janubiy Korea

Yetakchi tashkilot:

O‘z RFA, “Fizika-Quyosh” IIChB,
Fizika-Texnika Instituti

Dissertatsiyaning himoyasi O‘zbekiston Milliy Universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil “___” ____ soat “___” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Тел: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Тел: (+99871) 227-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” ____________ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____________dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M.Musaxanov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, akademik

M.M.Nishonov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

B.J. Axmedov
Ilmiy darajalar beruvchi kengash Ilmiy Kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Kuchli o‘zaro ta’sirlarning asosiy nazariyasi, Kvant Xromodinamikasi (KXD) materiyaning joriy fundamental bo‘lakchalari (kvarklar) va o‘zaro ta'sir tashuvchilari (glyuonlar) fizikasini nazariy tomondan tavsiflab beradi. Eksperimental tomondan ulkan tezlatgichlar va juda sezgir detektorlarga asoslangan zamonaviy ilmiy qurilmalar bizga fazoning $\sim 10^{-15}$ m gacha bo‘lgan kichik qismida, $\sim 10^{-23}$ s gacha bo‘lgan juda qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘layotgan ajoyib hodisalarni o‘rganish imkonini beradi. Bular kuchli o‘zaro ta’sirlarning xarakterli makon va vaqt shkalalaridir. Fazo va vaqtning yana ham kichikroq bo‘lgan hududlarini tadqiq qilish uchun tezlatkichlardagi elementar zarrachalar juda katta $\sim 10^{12}$ eV energiyalarga qadar tezlashtiriladi. Shunday qilib, biz sehrli va ajoyib koinotning yaratilishi paytida sodir bo‘lgan hayratlanarli hodisalarni kuzatish yo‘nalishida tadqiqotlar olib boramiz.

KXD, universal o‘zaro ta’sir “doimiysi”, $\alpha \sim g^2$ (g – ta’sir konstantasi)ga asoslangan kuchli o‘zaro ta’sirlarning noabel kalibrlangan maydon nazariyasidir. Konstanta haqiqatan ham o‘zgarmas qiymatga ega emas va o‘zaro ta’sir energiyasiga qarab qiymati o‘zgaradi. Fazoning kichik hududlariga to‘g‘ri keladigan katta energiyalarda ta’sir doimiysining o‘lchovsiz qiymati impulsning sekin o‘zgaruvchan funksiyasiga aylanadi va qiymati birdan kichik bo‘ladi, $\alpha < 1$. Bu moddalarning asosini tashkil etuvchi kvarklarning xatti-harakatlaridagi asimptotik erkinlik deyiladi [1,2]. Shunday qilib, KXDning go‘zal matematik ifodasi g‘alayonlanishlar orqali yondashuvga asoslangan bo‘lib, kuchli o‘zaro ta’sirlashuvchi zarrachalar qatnashuvchi hodisalarni KXD doirasida o‘rganish imkonini beradi. G‘layonlanishlarga asoslangan KXD bilan bog‘liq ko‘plab texnik muammolar mavjud bo‘lsa-da, nazariy baholash va natijalarni zamonaviy tezlatgichlarda olingan eksperimental ma’lumotlar bilan taqqoslashni ozmi-ko‘p imkoniyati mavjuddir [3].

Aksincha, katta masofalarga to‘g‘ri keladigan kichik energiyalarda kuchli o‘zaro ta’sirlarning boshqa hodisalari mavjud. Bular kvark konfaynmenti [4] va kiral simmetriyaning spontan (o‘z-o‘zidan) buzilishidir [5]. Birinchisi, adronlar ichida kvarklarni doimiy saqlanib, ionlanishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun javobgar bo‘lsa, ikkinchisi atrofdagi tabiat adronlari massalarining hosil bo‘lishi uchun javobgardir. Garchi konfaynment mexanizmi hali to‘liq tushunilmagan bo‘lsa-da, u kichik energiyalarda o‘zaro ta’sir konstantasining ortib borayotgan qiymati bilan ham o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin.

O‘zaro ta’sir konstantasining ortib borayotgan qiymati tufayli quyi energiyalrda KXDni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilishida g‘alayonlanishlar yondashu-vini ishlatishning iloji yo‘q. Shuning uchun KXD o‘rniga, xususan, atom yadrolari fizikasini o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan effektiv maydon nazariyalari va fenomenologik modellar ishlab chiqilgan (masalan, [6]ga qarang). Ko‘plab yadro modellari butunlay fenomenologik asosda tuzilgan bo‘lsa-da, ba’zi adronik yondashuvlarda quyi energiyalardagi KXDning asosiy xususiyatlarini hisobga olishga harakat qilingan. Shu oʻrinda kiral simmetriya va uning spontan buzilishini esga olish mumkin. Bundan tashqari yana bir qiziq hodisa bor, bu yadro muhitidagi adron xossalari bilan bogʻliq kiral simmetriyaning qisman tiklanishidir (masalan, [7]ga qarang). Yadro muhitidagi adron xossalari adronlarning oʻzaro ta’sir dinamikasi orqali yadro materiyasining oʻziga xos xususiyatlari bilan ham bogʻliqdir.

Yadro muhitidagi adron xossalariga yoki umuman yadroviy materiya xususiyatlariga qaratilgan koʻplab yondashuvlarning zaif tomoni shundaki, bir vaqtning oʻzida ikkalasini (yadro moddasidagi adron xossalari va yadro materiyasining xossalari) bir xil nazariy asosda oʻrganishning iloji yoʻqligidir. Shu yerda bu muammoni hal qilishga qaratilgan yondashuvning ***zarurligi va ahamiyati*** aniq tushunarli boʻlgan boʻlsa kerak. Shuning uchun bunday yaqinlashuvlarni ishlab chiqish ushbu dissertatsiyada taqdim etilgan ilmiy tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotni Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar Oʻzbekiston Respublikasi fan va texnikasi ustuvor yoʻnalishlariga mos keladi. Xususan, dissertatsiyada taqdim etilgan ilmiy tadqiqot natijalari energiya manbalari va energiya tejash muammolari, radiatsiya xavfsizligi muammolari va zamonaviy tibbiyot texnologiyalari bilan uzviy bogʻliq. Umuman olganda, dissertatsiya mavzusi dunyoning ilmiy muassasalarida olib borilayotgan fundamental fan tadqiqot dasturlari nuqtayi nazaridan ham e’tiborga molikdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, dissertatsiyada keltirilgan tadqiqotlar Oʻzbekiston Respublikasida fundamental fanni rivojlantirish maqsadlariga ham mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Dissertatsiya mavzusi yadro va adronlar fizikasining zamonaviy tadqiqot yoʻnalishlarining asosiy muammolari bilan bevosita bogʻliq. Su ma’noda, dunyoning bir qancha ilmiy tadqiqot muassasalarida va ilmiy laboratoriyalarda olib borilayotgan turli ilmiy loyihalarni eslatib oʻtish mumkin hamda quyida biz ulardan ba’zilarini qisqacha eslatib oʻtamiz.

1. Kiral simmetriya va uning spontan buzilishi quyi energiyalarda kuchli oʻzaro ta’sirlashuvchi sistemalarda yuz beradigan eng ajoyib hamda muhim hodisalardan biridir. Bu hodisa kiral kondensat $\langle q\bar{q}\rangle$ qiymatining kamayishi orqali yadro muhitidagi adron xossalari bilan oʻzaro bogʻliq. Kiral kondensatning kamayuvchi qiymati kiral simmetriyaning qisman tiklanishini ifodalaydi.

Xususan, adronlar massalari yadro muhitida qanday oʻzgarishini tushunish juda muhim, chunki bu kiral simmetriyaning tiklanishi bilan bogʻliq va hatto kvark konfaynmentiga aloqador boʻlishi ham mumkin [8-14]. Kiral kondensatning yadro muhitida oʻzgarishi ma’lum va bu yadro zichligi oshishi bilan spontan buzilgan kiral simmetriya qanday tiklanishi mexanizmini ochib beradi ([8]-ishdagi muhokamalarga qarang). Bu hodisa, shuningdek, yadro muhitida adron massalarining oʻzgarishini nazarda tutadi. Sababi, kvarkning dinamik massasi kiral simmetriyaning spontan buzilishi natijasida paydo boʻladi. Shunday qilib, adron massasining yadro muhitida modifikatsiyasini tushunish o'nlab yillar davomida eng muhim masalalardan biri bo‘lib kelgan [15-19]. Binobarin, so‘nggi yigirma yil davomida Jefferson Laboratoriyasida [1] o‘tkazilgan ko‘plab tajribalar yadro muhitida adron xossalarini o‘rganishga bag‘ishlanib kelmoqda. Xususan, eksperimentlar yadro muhitidagi nuklonlarning elektromagnit (EM) form factorlarnini o‘rganishga ham bag‘ishlandi. Masalan, geliy ^{4}He($\vec{e}$, e', $\vec{p}$)^{3}H [20-23] va kislorod ^{16}O($\vec{e}$, e',$\overrightarrow{p}$)^{15}N [24] dan protonni ionizatsiya qilish reaksiyalaridagi qutblanuvchi-almashish hodisasi so‘nggi o‘n yilliklarda uzluksiz ravishda tajribalardan kelib chiqadigan maqsadlardan birini tashkil qildi. Eksperiment qutblanish-almashish ikkilangan nisbati $\mathcal{R} = (P_x'/P_z')_{\,^4He}/(P_x'/P_z')_{\,^1H}$ kichrayishini ko‘rsatdi. Nazariya nuqtayi nazaridan kichrayish effekti yadro muhitida nuklonning EM form factorlarining o‘zgarishi sifatida [25-31] yoki yakuniy holatda zarralarning o‘zaro ta’siri va ikki jism toklarining hissasi sifatida talqin qilinishi ham mumkin [32]. Shuning uchun, energiya oblastiga qarab va [29,31] ishlarda ta’kidlanganidek, bog‘langan nuklonlarning EM form factorlaridagi o‘zgarishi qutblanish-almashish ikkilangan nisbatining eksperimental o‘lchovlari paytida kuzatilgan o‘zgarishining haqiqiy ifodasi bo‘lishi mumkin. Yadro muhitidagi EM form factorlar bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar proton va neytronlarning xususiyatlari o‘rtasidagi farqni tahlil qilishga yordam beradi.

Turli xil boshqa laboratoriyalardan olingan eksperimental ma'lumotlar ham yadrolarda nuklon xossalarining modifikatsiyalanganligini ko'rsatadi [33-39]. Demak, boshqa barionlar xossalari ham yadro muhitida o'zgarishlarga duchor bo'lishi mumkin [40-44].

Yadrolardagi nuklonlar xossalarining o‘zgarishini ko‘rsatuvchi Yevropa Muon Hamkorligi [33] kuzatuvlari yadro muhitidagi adronlarning xossalariga katta qiziqish uyg‘otdi. Dastlab deyteriy va temir yadrolaridagi chuqur noelastik muyuon sochlishlarishining effektiv kesimlari bir-biridan masshtab omili bo‘lgan doimiy 28 soni bilan farq qilishi kutilgan edi. Tajriba esa boshqa natijani ko‘rsatdi va bu effekt EMC effekti deb nomlandi. Bu effektga qiziqish kuchsiz bog‘langan nuklonlardan (yadrolardagi nuklonlarning bog‘lanish energiyasi MeV tartibida) yuqori energiyali (GeV tartibida) elektronlarning sochilishiga qaramay, yadro ichidagi nuklonlarning strukturaviy o‘zgarishlarini ko‘rsatishi sababli paydo bo‘ldi. Ushbu mavzuga bag'ishlangan ko‘plab ishlarga qaramay, EMC effektining tabiati hali ham to‘liq tushunilmagan.

Shuning uchun yadro muhitidagi nuklonlarning xossalarini o‘rganish yadro fizikasining o‘ta muhim vazifasi bo‘lib, ushbu dissertatsiyaning ham asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

2. Boshqa tomondan ham assimetrik yadrolarning xossalarini o‘rganish zamonaviy yadro fizikasi va yadro astrofizikasida muhim hamda dolzarb masala hisoblanadi. Ko‘pgina eksperimental va nazariy yondashuvlar materiyaning assimmetrik xususiyatlariga bag‘ishlangan [45-47]. Ushbu tadqiqotlar va xususan, yadro materiyasining holat tenglamasini (EOS) o‘rganish noyob izotoplar fizikasini, og‘ir ion reaksiyalari va neytron yulduzlarining shakllanishi bilan

[1] Laboratoriyaning Yadro Fizikasi web-sahifasini ko‘ring: https://www.jlab.org/physics.

bog‘liq jarayonlarni tushunishda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘p harakat qilingan bo‘lsa-da, yadro simmetriya energiyasining xususiyatlari haqida normal holatdagi yadro materiyasi zichligidan ancha kattaroq zichliklarda yetarlicha aniq ma’lumotlar hali ham yo‘q. Boshqa tomondan, normal yadro materiyasi zichligidan kichikroq zichliklarda yadrolarning simmetriya energiyasi haqidagi bilimlarimiz ozmi-ko‘p ma’lum hisoblanadi [45,48]. Misol uchun, kichik zichliklarda, EOSning simmetriya energiyasining xossalari mavjud yadrolarning neytron qobig‘i va stabillik liniyasi yaqinidagi yadrolarning barqarorligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun nisbatan kichikroq zichlikdagi mavjud eksperimental tadqiqotlardan foydali va batafsilroq ma’lumotlar olish mumkin. Nazariya tomonidan qaraganda, yadro simmetriya energiyasini o‘rganishga yo‘naltirilgan ko‘p zarrali modellar ma’lum bir cheklovlarni qondirishi kerak.

Yuqorida muhokama qilinganlar nuqtayi nazardan noyob izotoplar fizikasi hozirgi eksperiment markazlarining diqqat markazida bo‘lishda davom etmoqda, xususan, simmetriya energiyasi va assimetrik yadrolarning holat tenglamalarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Masalan, Janubiy Koreyaning Daegeon shahridagi yangi tezlatkichdagi tajribalardan maqsad, ya’ni ON-line tajribalar uchun noyob izotop tezlatgich majmuasi (RAON) davriy sistemadagi elementlarning kelib chiqishi, koinotning tug‘ilishi va kengayishini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Tezlatkich, shuningdek, biotibbiyot, molekulyar, atom va yadro fizikasi kabi bir qancha sohalarda qo‘llanilishi ham kutilmoqda.[2]

Ushbu dissertatsiyada biz kichik zichlikli yadro muhitlaridagi eksperimental ma’lumotlarni tahlil qilishdan kelib chiqadigan cheklovlarni hisobga olgan holda yarim fenomenologik kiral soliton yondashuvi doirasida simmetrik va assimetrik moddalarning holat tenglamalari bo‘yicha tadqiqotlarimizni ham taqdim etamiz.

3. Materiyaning hossalarini ekstremal (katta zichlik va temperaturalar) sharoitlarda tahlil qilish va neytron yulduzlar tuzilishini o‘rganish zamonaviy astrofizikaning qiziqarli mavzusidir. Xususan, yadro astrofizikasida neytron yulduzlarning tuzilishini o‘rganish yadro materiyasining holat tenglamalari bilan bog‘liq bo‘lib, u yadro zichligi qiymatlarining keng diapazoni uchun bosim va energiya zichliklarining o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi [46, 49, 50].

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, holat tenglamarining o‘ziga xos xususiyatlari simmetrik yadro moddasining to‘yinganlik zichligidan past bo‘lgan zichliklarda yaxshi ma’lum, yuqori zichlikli hududlarda esa hali ham aniq emas. Laboratoriyalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksperimental sharoit yaratish qiyinligi va ab-initio (asosdan boshlab) nazariy hisob-kitoblarning yo‘qligi sababli holat tenglamalrining yuqori zichliklardagi xususiyatlari yaxshi o‘rganilmagan. Shuning uchun eksperiment nuqtayi nazaridan neytron yulduzlarini o‘rganish holat tenglamalarining yuqori zichliklardagi xususiyatlarini o‘rganish uchun laboratoriya bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Nazariy nuqtayi nazardan boshlang‘ich asoslardan boshlab hisob-kitoblar o‘rniga, holat tenglamalrining kichik zichlikli muhitlardagi yaxshi ma’lum xossalarini hisobga olgan holda fenomenologik asosdan boshlash

---

[2] Fundamental Tadqiqotlar Instituti (IBS) web-sahifasini ko‘ring: https://www.ibs.re.kr/eng/sub01–05.do.

va yuqori zichlikli oblastlarga ekstrapolyatsiya qilish hamda shu orqali yadro materiyasining xossalarini tavsiflashga harakat qilish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan og‘ir ionlar to‘qnashuvlarida kvark-glyuon plazmasining hosil bo‘lishi materiyaning muvozanatlashuvga yuz tutishi jarayonida yadro zichligining turli bosqichlaridan (oddiy yadro materiyasi zichligi bilan solishtirilganda o‘nlab darajada yuqori zichliklardan boshlab) o‘tadi. Brukxaven Milliy Laboratoriyasida relativistik og‘ir ion to‘qnashuvlari bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar bizga yadro materiyasi va yadro materiyasidagi adron xossalari orasidagi bog‘liqlikni turli xil zichlik qiymatlarida aniqlash imkonini beradi[3].

Ushbu dissertatsiyada biz o‘ta yuqori zichliklarda materiya bilan bog‘liq bo‘lgan ishlanishlarimizni va neytron yulduzining xossalari haqidagi tadqiqotlarimizni muhokama qilamiz.

4. Yuqorida qayd etilgan barcha eksperimental tadqiqotlar Yevropa Yadroviy Tadqiqotlar Markazi (CERN)dagi Katta adron kollayderi (LHC)da o‘tkazilgan tajribalarning ham alohida maqsadlari hisoblanadi.[4] LHCda zarralar juda zich, oddiy yadroviy materiya zichligidan ($\rho_0 \approx 0{,}16 - 0{,}17 fm^{-3}$) 30-40 baravar zichroq va kuchli magnit maydoni ($\sim 10^{19} G$) muhitida hosil bo‘ladi. Bunday muhitda adron xususiyatlarini o‘rganish olimlarning hozirgi vaqtdagi maqsadlaridan biridir. Xususan, LHCb guruhining tajribalaridan maqsad bunday muhitda yaratilgan og‘ir zarralarni kuzatishdir va shuning uchun yadro muhitidagi og‘r zarralar ham adronlar fizikasida qiziqarli mavzudir.

Yadro muhitidagi og‘ir adronlar hossalarining modifikatsiyalari yengil adronlar hossalarining modifikatsiyalariga qaraganda ancha kam o‘rganilgan bo‘lsa-da maftunkor yadrolar bo‘yicha bir qancha ishlar [51-54] charmoniy J/ψ va Σ_c topilganidan [55-57] ko‘p o‘tmay chop etilgan. Keyinchalik yadro muhitidagi og‘ir barionlar o‘rganildi [58-61]. Yaqinda og‘ir adronlarga bo‘lgan qiziqish yana kuchaydi. Chunki ular ustida o‘tkazilgan tajribalar, jumladan, ekzotik og‘ir adronlar ham qiziqarli natijalarni berdi [62-66] (nostandart og‘ir hadronlar bo‘yicha tajribalar holatini yaqinda ko‘rib chiqishga atalgan [67]ni ham qarang). Bu, shuningdek, yadro muhitidagi og‘ir barion xossalari bilan bog‘liq tadqiqotlarni ham boshlab berdi [68-73] (shuningdek, [74] qarang). Og‘ir barionlarning yadro muhitida va yadrolarda qanday o‘zgarishlarga duchor bo‘lishi to‘g‘risida eksperimental ma’lumotlar mavjud emasligi sababli, kelajakdagi tajribalarni boshqarish uchun ularning muhitdagi modifikatsiyasini nazariy jihatdan o‘rganish katta ahamiyatga ega.

Ushbu dissertatsiyada biz yadro muhitidagi og‘ir barion xossalari bilan bog‘liq tadqiqotlarimizni ham taqdim etamiz.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda eksperimental obyektlar va astrofizik kuzatishlarga, asosan, zich materiya hodisalari bilan bog‘liq ko‘plab eksperimental va fenomenologik ma’lumotlar kiradi. Shunga qaramay,

---

[3] Yadro va Elementar Zarralar Fizikasi Bo‘limining web-sahifasini ko‘ring: https://www.bnl.gov/npp/.

[4] CERN web-sahifasini ko’ring: https://home.cern/science/physics.

zich materiya hodisalarini yagona shaklda tahlil qilish uchun umumiy qabul qilingan va mustahkam asosda (to‘g‘ridan-to‘g‘ri QCDdan) shakllantirilgan yondashuv mavjud emas. Aksincha, juda ko‘p uslubiy yo‘nalishlar va ko‘plab yondashuvlar, asosan, zich materiya hodisasining muayyan qismiga qaratilgan. Masalan, atom yadrolarining xossalarini tavsiflovchi yadro modellari, asosan, atom yadrolarining xossalariga e’tibor qaratadi, yadro muhitidagi nuklonlarning xossalari haqida hech qanday ma’lumot bermaydi. Bundan farqli o‘laroq, yadro materiyadagi adron xossalarini tavsiflovchi va bu xossalarni yadro materiyasi xossalariga bog‘laydigan adron modellarini yaratish oson ish emas.

Shuning uchun iloji boricha yadro materiyasi bilan bog‘liq hodisalarni bir xil asosda ko‘rib chiqishga harakat qilinadigan har qanday yondashuv, albatta, yadro va adron fizikasi hamjamiyatida qiziqish uyg‘otadi. Bunday yondashuvlar quyi energiyalarda va zich materiya bilan bog‘liq tadqiqotlarda kuchli o‘zaro ta’sir hodisalari haqidagi umumiy tushunchamizga oydinlik kiritishi mumkin.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiyada taqdim etilgan tadqiqot qisman O‘zbekiston Milliy Universiteti (O‘zMU) nazariy fizika kafedrasida, kafedra a’zolari bilan yaqin hamkorlikda bajarilgan.[5]

Dissertatsiyadagi asosiy vazifalarining boshlang‘ich qismi nazariy fizika kafedrasida muallifning kandidatlik ishi dasturi doirasida bajarilgan (Qarang: [P1-P9][6]). Muallifning fan kandidati maqomini olishga doir ilmiy ishlari O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnika davlat qo‘mitasi (Gr.N°11/97 va Gr.N°18/99), INTAS uyushmasi (Gr.N°93-0239ext va Gr.N°YSF00-51) hamda SCOPES dasturi (Gr.N°7UZPJ65677) tomonidan qisman qo‘llab-quvvatlanib kelingan.

Ushbu DSc dissertatsiya bilan bog‘liq tadqiqotlar, shuningdek, Pusan Milliy Universitetida (Pusan, Koreya) PostDoc dasturi bo‘yicha (Qarang: [D1,D2]), Yadro fizikasi tadqiqotlar markazida (Juelich, Germaniya) Aleksandr fon Gumboldt fondining Postdoc dasturi bo‘yicha (Qarang: [D3-D6]), Janubiy Koreya Milliy tadqiqotlar fondi, “Ta’lim, fan va texnologiyalar vazirligi” (NRF MEST) ilmiy dasturlari bo‘yicha [Bu yerda muallif bosh tadqiqotchi bo‘lgan: Gr.N°2011-0023478 & Gr.N°2012-0008469 “Yadro materiyasi va astrofizikada kiral dinamika” (Qarang:[D7-D22]), Gr.N°2016R1D1A1B0393505 “Og‘ir adronlarda noperturbativ ta’sirlar va adron strukturasining ekstremal sharoitlarda o‘zgarishlari” (Qarang:[D23-D27]) va Gr.N°2020R1F1A1067876 “Og‘ir adronlar va yadro materiyasi” (Qarang:[D28-D31])] moliyalashtirilgan. Shuningdek, tadqiqotlar qisman NRF MEST granti Gr. N°2009-0089525 (Qarang: [D32-D35]) va Inha Universitetining (Incheon, Koreya) xususiy tadqiqot grantlari (qarang: Ref. [D36-D39]) doirasida ham qo‘llab-quvvatlangan.

---

[5] 2009-yilgacha TPD izlanuvchining asosiy ish joyi bo‘lib kelgan. Shundan so‘ng u TPDning jamoatchilik asnosidagi a’zosi bo‘lib, hozirgi kungacha O‘zMU ilmiy ishlariga faol hissa qo‘shib kelmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, muallifning 64 ta Web of Science asosiy to‘plamida chop etilgan maqolalaridan 30 tasida O‘zMU muallifning ish joyi sifatida ko‘rsatilgan.

[6] Muallifning kandidatlik ishiga ham qarang [P10].

Shunday qilib, tadqiqotchining ilmiy izlanishlari doimo u ishlayotgan ilmiy muassasalar va universitetlardagi ilmiy loyihalarning bir qismi bo‘gan[7].

Tadqiqotning maqsadi zich yadro muhitida adronlarning, yadrolarning o‘zini va materiyaning katta zichliklardagi xossalarini bir xil Lagranjian asosida ko‘rib chiquvchi effektiv fenomenologik modelini ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning vazifalari:

– mezon atomlari fenomenologiyasi asosida Lagranjianni ishlab chiqish va yadro materiyasidagi nuklon xossalarini hamda chekli yadro xossalarini o‘rganish uchun amaliy dasturlarni amalga oshirish[8];

– atom yadrolarining to‘yingan zichlikdagi fenomenologiyasi asosida keyingi yondashuvlar va natijalarni fenomenologik ma’lumotlar hamda boshqa yondashuvlar natijalari bilan taqqoslash[9];

– modelning zich muhitdagi adron xossalarini o‘ganishda, neytron yulduzlarning holat tenglamarini va xossalarining yadro materiyasi tenglamalarini o‘rganishda qo‘llanilishi[10];

– yadro materiyasidagi giperonlarni [11] va yadro materiyasidagi og‘ir adronlarni[12] hisobga olgan holda yaqinlashuvlarni SU(3) sektorga kengaytirish;

– g‘alati materiyaning holat tenglamalarini o‘rganish [13] va neytron yulduzlarning xossalarini o‘rganishda qo‘llash.

Tadqiqotning obyekti: oddiy, g‘alati va og‘ir adronlar, adron sistemalari, atom yadrolari va neytron yulduzlari.

Tadqiqotning predmeti yadro muhiti va umuman yadro muhitidagi adronlarning xossalari nuqtayi nazaridan kuchli o‘zaro ta’sir qiluvchi adron sistemalarining xossalarini o‘rganish uchun nazariy modellar hamda usullarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari: Kiral Lagranjian yondashuvlari, chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalar va solitonik yechimlar, mezon nazariyalar va kiral soliton-nuklonlar, adron-yadro o‘zaro ta’siriga fenomenologik optik model yondashuvi, atom yadrolariga fenomenologik yondashuvlar, neytron yulduzlarini o‘rganishda umumiy nisbiylik nazariyasi tenglamalari.

Dissertatsiya maqsadlarini amalga oshirish uchun biz raqamli usullardan foydalandik: chiziqli bo‘lmagan differensial tenglamalar, integralar, funksional minimizatsiyalar, interpolyatsiyalar va ekstrapolyatsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari:

---

[7] Aytish joizki, muallifning 91 ta ilmiy ishlari chop etilgan bo‘lib 53 tasi dissertatsiya mavzusiga tegishli. Ulardan 39 tasi hozirgi dissertatsiya ishining bir qismi sifatida qayd etilgan. Muallifning dissertatsiya mavzusiga aloqador bo‘lmagan boshqa ishlari orasidan ko‘p qismini O‘zMU nazariy fizikasi kafedrasida bajarilgan va turli ilmiy jamg‘armalar, jumladan, O‘zbekistondagi jamg‘armalar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

[8] Bu vazifa fan nomzodi ilmiy darajasini olishdan oldin qisman bajarilgan ([P1, P3]larga va muallifning nomzodlik dissertatsiyasi [P10]ga qarang) va fan nomzodi ilmiy darajasini olganidan keyin ham davom ettirilgan. Masalan, [D3-D5]larni va ushbu dissertatsiya ishining I hamda II boblarini qarang.

[9] [D15, D32]larni va dissertatsiyaning III bobini qarang.

[10] [D21]ni va dissertatsiyaning IV bobini qarang.

[11] [D23, D28]larni, dissertatsiyaning V va VI boblarini qarang.

[12] [D29, D31]larni va dissertatsiyaning VII bobini qarang.

[13] [D28]ni va dissertatsiyaning VI bobini qarang.

– yadro muhitidagi adron xossalarini va atom yadrolarining xossalarini o‘rganish uchun effektiv model yondashuvi ishlab chiqildi hamda bu yondashuv atom yadrolarining oddiy zichligidan tortib kompakt yulduzlarda mavjud bo‘lgan o‘ta yuqori zichlikli hududlarga tegishli bo‘lgan turli xil fenomenologik hodisalarni to‘g‘ri tavsiflaydi;

– simmetrik va assimmetrik yadro moddasining tenglamalari to‘g‘ri ishlab chiqildi va yadro zichligining keng diapazonida fenomenologik dalillar bilan moslik o‘rnatildi;

– xususan, model ikki quyosh massasiga teng massali neytron yulduzlarining xossalarini to‘g‘ri tasvirladi;

– dastlab SU(2) aromatlar sektorida ishlab chiqilgan usul SU(3) aromatlar sektoriga kengaytirilib, g‘alati kvark bilan bog‘liq hodisalar va og‘ir kvark bilan bog‘liq hodisalar qamrab olindi;

– yadro muhitidagi giperonlarni o‘rganishda kaon massa o‘zgarishlarining ahamiyati ko‘rsatildi;

– yadro muhitidagi og‘ir barionlar massalarining o‘zgarishi va ularning yadro muhitidagi og‘ir mezon massalari bilan aloqasi bo‘yicha bashoratlar ham soliton modellari doirasida birinchi marta amalga oshirildi;

– model yaqinlashuviga bog‘liq bo‘lmagan SU(3) kvantlash doirasida o‘rtacha maydon yondashuviga asoslangan qo‘llashlarni amalga oshirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalaridan eksperimental natijalar va fenomenologik kuzatishlar natijalarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Masalan, yadro muhitidagi nuklonlarning strukturaviy o‘zgarishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz Jefferson Laboratoriyasida bajarilgan ishlarni tushunishda va kelajakdagi eksperimentlarni rejalashtirishda o‘ziga yarasha qiziqish uyg‘otadi.

Ushbu dissertatsiyada amalga oshirilgan simmetriya energiyasini o‘rganish bo‘yicha natijalarimiz Janubiy Koreyaning Daegeon shahridagi ON-line eksperimentlari davomida, kamyob izotoplarni tezlatgich majmuasi (RAON)da kelajakda bajariladigan tajribalarni tahlil qilish uchun foydali bo‘ladi.

Yaqinlashuvimiz doirasida tadqiq qilingan yadro materiyasi tenglamalarining katta zichlikli hududlarga ekstrapolyatsiyasi neytron yulduzlarining tegishli xususiyatlarini ifodalashga imkon berdi. Masalan, muayyan holat tenglamalariga mos keladigan massasi ikkita quyosh massasiga teng neytron yulduzlarini tafsiflashga mufavvaq bo‘lindi. Ushbu natija yaqinda qayd qilingan astrofizik kuzatishlarni tahlil qilishda amaliy tomondan qiziqish uyg‘otadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi natijalarimizni kichik zichliklarga to‘g‘ri keluvchi pionik atom ma’lumotlari, to‘yingan zichlikdagi yadroviy modda xossalari va ko‘plab tajriba ko‘rsatkichlari bilan sifat hamda miqdor jihatidan mos kelishi bilan tasdiqlanadi. Xususan, nuklonning turlicha form factorlarining (energiya impulsi tenzori, zaryad va magnit form ractorlari) o‘zgarishlari Yevropa muyuon hamkorligi natijalaridan olingan eksperimental dalillar bilan, ya’ni EMC effekti bilan mos kelishi ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari xalqaro miqiyosda tan olingan jurnallarda nashr etilgan ilmiy maqolalarimiz, xalqaro konferensiyalar va seminarlarda qilgan taqdimotlarimiz hamda muhokamalarimiz, Koreya, Yaponiya va O‘zbekistonning turli ilmiy muassasalarida o‘tkazilgan seminarlarimiz bilan ham tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati adron hamda yadro fizikasi hamjamiyatining bizning nashr etilgan ishlarimizga qiziqishi bilan tasdiqlangan. Masalan, “Yadro muhitidagi nuklonning energiya-impuls tensor form factorlari”ga bo‘lgan qiziqishni eslatib o‘tish mumkin ([D7,D16,D20]larda bajarilgan ishlarimizga bo‘lgan tashqaridan e’tiborga qarang).

Ushbu dissertatsiyada muhokama qilingan asosiy yondashuv boshqa topologik va topologik bo‘lmagan soliton modellarida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari tadqiqotlarimiz adron va yadro fizikasi hamjamiyati Ichida pedagogik qiziqish ham uyg‘otadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalari qisman amalga oshirildi va kelajakda tezlatkichlarda rejalashtirilgan tajribalar asosida amalga oshirilishi kutilmoqda. Masalan, “Jefferson laboratoriyasida cheklangan yadrolardan nuklonlarni ionizatsiya qilish reaksiyalari” davomida kutilmoqda ([22, 23, 28, 29]larda bizning ishimiz [P9]ga tegishli bolgan muhokamalarga qarang).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu dissertatsiyada taqdim etilgan tadqiqotlar natijalari 40 dan ortiq xalqaro konferentsiyalar va seminarlarda, Koreya Fiziklar Jamiyatining ko‘plab yig‘ilishlarida taqdim etilgan va muhokama qilingan. Dissertatsiyada muhokama qilingan ishlar asosida O‘zbekiston, Koreya, Yaponiya va Germaniyaning turli ilmiy tadqiqot muassasalarida seminarlar o‘tkazilib, maxsus ma’ruzalar o‘qilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Mazkur dissertatsiyada ko‘rib chiqilgan tadqiqotlar asosida jami 39 ta ilmiy ish[14] (xususan, 9 ta yakka mualliflik asari[15]) nashr etilgan. Ulardan 23 ta ilmiy maqola (xususan, 6 ta yakka mualliflik maqolasi) Web of Science ma’lumotlar bazasining asosiy to‘plamiga kiritilgan va xalqaro miqyosda e’tirof etilgan retsenziyalanadigan jurnallarda chop etilgan. Qolgan 16 tasi ilmiy ishlar konferensiya materiallari sifatida nashr etilgan, shu jumladan, 6 tasi maqola xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kompyuterda tayyorlangan matndan iborat bo‘lib, shu yerda keltirilgan kirish qismi, 7 bobdan, asosiy qismining qisqacha mazmuni, bibliografiya va ilovalardan (qo‘shimcha qism) iborat. Asosiy qismga tegishli bo‘lgan va aniq vazifani tavsiflovchi har bir bob boshlanishida berilgan o‘ziga xos qisqacha kirish qismi hamda tegishli bo‘lgan nazariya, muhokama, xulosa qismlaridan iborat. Ilova va adabiyotlardan tashqari asosiy qismi 162 betdan iborat.

[14] Muallifning [D1-D39] maqolalarida keltirilgan asosiy g‘oyalar qisman ushbu dissertatsiyada batafsil muhokama qilingan (I-VII boblarga qarang). Maqolalarning aksariyati dissertatsiya ishi hajmining rasmiy chegaralanganligi sababli qisqacha eslatib o‘tilgan, xolos.

[15][D9,D15,D21,D24,D27,D36-D39]larni qarang.

DISSERTATSIYANING MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va ahamiyati, ularning asoslari, maqsadi, vazifalari va mavzulari tavsiflangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi va jahon miqyosidagi fan hamda texnika taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga aloqadorligi tushuntirilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilib, xulosalarning amaliyotga tatbiq etilishi muhokama qilingan. Ushbu munozaralarning barchasi dissertatsiya mazmuni tavsifidan yuqorida, shu yerda takrorlandi.

Nihoyat, asosiy qism oxirida dissertatsiyaning umumiy xulosasi keltirilgan. Bu yerda nashr etilgan ishlarni dissertatsiyada bajarilgan ishlarga nisbati ko‘rsatilib, qisqacha ko‘rinishda sarhisob qilingan. O‘quvchiga qulay bo‘lishi uchun dissertatsiyning oxirida va bibliografiyadan oldin bir nechta qo‘shincha ma’lumotlarni tashkil qiluvchi ilovalar ham keltirilgan.

Dissertatsiyaning I bobida yadro materiyasidagi nuklonlarning xossalari o‘ganilgan. Shu maqsadda Skirmi modeli asosida mezonik nazariyalardagi izospin symmetriyasining buzilish effektlari va ularning yadro materiya hodisalari bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan. Biz bu bobda yerda nuklonlarni kiral solitonlar sifatida tavsiflovchi mezon nazariyalarida izospin symmetriyasining buzilish effektlarini amalga oshirishni muhokama qildik va yadro muhitidagi nuklon xususiyatlarini tavsiflovchi modifikatsiyalarini ko‘rib chiqdik. Misol sifatida Skirmi modelini ko‘rib chiqdik. Kiral soliton modellari va xususan, Skirmi modeli boshqa adron modellariga solishtirganda o‘ziga xos afzalliklarga ega. Chunki ular kiral symmetriyaga asoslangan va nuklonlarning xususiyatlarini hamda o‘zaro ta’sirlashuvlarini bir asosda ko‘rib chiqadi [75-76].



1-rasm. Neytron-proton massasi farqining yadro muhitida zichlikka bog’liq ravishda o’garishi. Zichlikning qiymatlari normal yadro zichligi $\rho_0 = 0.5m_\pi^3$ birligida berilgan. Uzluksiz chiziq isospin symmetrik yadro muhitiga $\rho_n = \rho_p$, chiziqchalardan iborat chiziq neytronlarga boy muhitga $(\rho_n - \rho_p)/\rho_0 = 0.2$, nuqta-chiziqli chiziq protonlarga boy muhitga $(\rho_n - \rho_p)/\rho_0 = -0.2$ va nuqtalardan iborat chiziq to’liq neytronlardan iborat muhitga $\rho_n = \rho$ to’g’ri keladi.

Masalan, 1-rasmda neutron-proton massalarining farqini yadro muhitida zichlikka bog‘liq ravishda o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

II bobda haqiqiy yadrolardagi nuklonlarning xossalari ko‘rib chiqilgan va oyna yadrolarda kuzatilgan Nolen-Shiffer anomaliyasini o‘rganishga qo‘llanilgan. Shu maqsadda chekli yadrolardagi nuklon xossalarining modifikatsiyalarini va yadro fizikasida uchraydigan hodisalarni ko‘rib chiqish orqali tadqiqotlarimizni davom ettirdik. Yadro materiyasidagi neytron-proton massalarining farqi, $\Delta m_{\rm np}^*$, hali ham empirik jihatdan ma’lum emas [77]. Hozircha, izospin-assimetrik yadro materiyasidagi bu miqdor haqida turli xil nazariy bashoratlar bor xolos. Yadro muhitidagi effektiv neytron-proton massasi farqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar Nolen-Shiffer anomaliyasini (NSA) hal qilish uchun muhim bo‘lishi mumkin [78]. NSAni tushuntirishga bag‘ishlangan ko‘plab nazariy yondashuvlar mavjud bo‘lsa-da, bu hodisa hali ham to‘liq tushunilmagan.

Bu bobda cheksiz, assimetrik yadrodagi nuklon xossalari va Δm_{np} o‘zgarmas zichlikli materiyadagi tadqiqotlarning haqiqiy yadrolardagi nuklon xususiyatlarini baholash uchun kengaytirildi. Bunday tadqiqotlar qisman izospin-buzilish effektini hisobga olgan holda kandidatlik ishida amalga oshirilgan edi. [16] Bu dissertatsiyamizda eslatilgan tadqiqotlarni chekli yadrolardagi kuchli va elektromagnit izospin-buzilush effektlarini hisobga olgan holda amalga oshirdik. Bu izlanishlarni chekli yadrolardagi neytron-proton massasi farqini yakka nuklonning effektiv xususiyatlari orqali o‘rganish va Skirmi modeli doirasida Nolen-Shiffer anomaliyasini tushuntirishga harakatlar orqali davom ettirdik. [17]

III bobda yadro materiyasining xossalarini modifikatsiyalash muhokama qilingan va yadro materiyasining holat tenglamalari olingan [18]. Bu yerda natijalarimizni mavjud bo‘lgan tajriba ma’lumotlari bilan solishtirdik. Ma’lum bir zichlik va haroratdagi nuklonlarning xossalarini o‘rganish yadro materiyasining xossayalarini tushunish uchun muhimdir. Buning sababi shundaki, yadroviy materiyasining xususiyatlarini ko‘rib chiqishda, barionlarning yadro muhitidagi mos ravishda modifikatsiyalashishini yodda tutish kerak. Biroq barionlarning yadro muhitidagi modifikatsiyasini yadro muhiti xossalariga mos ravishda bog‘lash qiyin muammo. Bu bobdagi tadqiqotlarimizning asosiy maqsadi cheksiz yadro materiyasi xossalarini yadro materiyasidagi nuklon xossalari bilan bog‘liq ravishda modifikatsiyalash edi.



2-rasm. Simmetrik yadro materiyasi energiyasini zichligiga bog’liqligi. Zichlikning qiymatlari normal yadro zichligi birligida $\lambda = \rho/\rho_0$ berilgan. Uzliksiz, uzlikli va nuqtali chiziqlar 3 ta model parameter toplamlariga mos keladi. (Parametrlarning qiymatlari dissertatsiyaning 3.1-jadvalida keltirilgan.) Solishtirish uchun Akmal-Pandharipande-Ravenhall natijalari [79] ham yulduzchalar orqali berilgan.

Biz qo‘llagan yondashuv yarim fenomenologik yondashuvdir. Bu yondashuvni asoslash uchun fenomenologik talablarni iloji boricha ko‘proq qondirish kerakligi ochiq-oydin tushunarli. Shuning uchun biz model eksperimental ma’lumotlarni takrorlay olishi va tegishli hodisalarni tushuntira olishi kerakligiga e’tiborimizni qaratdik. Xususan, model dissertatsiyaning oldingi boblarida olib borilgan tadqiqotlarga mos kelishini talab qildik. Izlanishlarni bosqichma-bosqich bajardik. Dastlabki bosqich sifatida, II bobda bo‘lgani kabi simmetrik va assimetrik yadro

[16] [P7,P9] larni qarang.
[17] [D7,D9] larni qarang.
[18] [D15] ni qarang.

muhitidagi nuklonlarning xossalarini tahlil qilishga e’tiborimizni qaratdik. Shu o‘rinda III bobda nuklonlarning yadro muhitidagi xossalarini cheksiz nuklon sistemalarining umumiy xossalari bilan bog‘lashga muvaffaq bo‘ldik.

2-rasmda simmetrik yadro energiyasining zichligiga bog‘liqligi keltirilgan. Natijalarimiz Akmal-Pandharipande-Ravenhall natijalari [79] bilan mos kelgan.

IV bobda yadro materiyasining holat tenglamari juda katta zichlikli hududlarga ekstrapolyatsiya qilingan va neytron yulduzlari xossalarining muhokamalari olib borilgan. Xususan, tadqiqotimizning asosini tashkil qiluvchi yaqinlashishlarimiz asosida massasi ikki quyosh massasiga $\sim 2M_{\odot}$ teng neytron yulduzlarini olish imkoni borligini ham ko‘rsatib bera oldik.

Neytron yulduzi tuzilishini tahlil qilish zamonaviy astrofizikaning qiziqarli mavzusidir. Xususan, yadro astrofizikasida neytron yulduzlarning tuzilishini o‘rganish yadro materiyasining holat tenglamalari (EOS) bilan bog‘liq bo‘lib, u zichlik qiymatlarining keng diapazoni uchun bosim zichligi va energiya zichligi orasidagi bog‘liklikni tavsiflaydi (masalan, [46]ga va undagi havolalarga qarang). EOSning o‘ziga xos xususiyatlari simmetrik yadro moddasining to‘yinganlik zichligidan kichik bo‘lgan zichliklarda yaxshi ma’lum, katta zichliklarda esa hali ham yaxshi ma’lum emas. EOSning katta zichlikdagi xossalari laboratoriyalarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksperiment orqali aniqlashning qiyinligi va “ab initio” (asosdan kelib chiqib) nazariy hisob-kitoblarning yo‘qligi sababli yaxshi o‘rganilmagan. Shuning uchun eksperiment nuqtayi nazaridan neytron yulduzi tadqiqotlari katta zichliklarda EOS xusussiyatlarini tushunish uchun laboratoriya bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Nazariy tomondan, ab initio hisob-kitoblar o‘rniga EOSning kichik zichliklardagi yaxshi ma’lum bo‘lgan xossalarini hisobga olgan holda fenomenologik asosdan boshlash va ekstremal sharoitlarda materiyaning xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilib, yuqori zichlikli hududlarga ekstrapolyatsiya qilish mumkin.

Shu nuqtayi nazardan va erkin fazodagi nuklon xususiyatlarining yadro muhitida o‘zgarishini tadqiq qilish imkonini bersa, yaqqol vektor mezonlarni tavsiflovchi Skirmining kiral soliton modeli nazariy asos uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yadro muhititdagi modifikatsiyalarni boshlang‘ich Lagrangianning erkin fazodagi konstantalarining zichlikka bog‘liqligini ta’minlagan holda ifodalash mumkin. Shuni ta’kidlash kerakki, umuman olganda, Lagrangianning yadro muhitidagi modifikatsiyasini fundamental tamoyillardan boshlab takrorlash mumkin. Ammo umumiy Lagrangianning shakli va uning tarkibiy qismlarining o‘ziga xos xususiyatlari hali ham yaxshi ma’lum emas. Shu sababli biz quyi energiyalardagi umumiy Lagrangianning qisqartirilgan variantini ifodalovchi kiral soliton modelidan foydalandik [D15, D39].

[D15, D39]larda keltirilgan tadqiqotlarda boshlang‘ich modelga bir oz ko‘proq fenomenologik ma’lumotlarni yuklash orqali modifikatsiyalashga erishildi, ya’ni zichlikka bog‘liq funksiyalarni erkin fazodagi Skirmi Lagrangianiga pionik-atom ma’lumotlariga ko‘ra va quyi energiyalarda assimmetrik yadro materiyasining to‘yinish zichligi ρ_0 atrofidagi xossalariga ko‘ra kiritildi. Garchi yadro muhitidagi modifikatsiyalangan Skirmi Lagrangiani umumiy Lagrangianning juda qisqartirilgan varianti bo‘lsa-da, u effektiv kiral Lagrangianlar ruhiga tayangan holda yadroviy ko‘p jism muammolarini o‘rganish uchun qo‘llanilishi mumkin. Bu yaqinlasish uchun to‘lov tavsiflash jarayonida eksperimental kuzatuvlardan ozroq farq qilishi mumkin bo‘lgan miqdoriy og‘ishlar bo‘lishi mumkin. Shunga qaramay, model aniq fazilatlarga ega: 1) u bir xil toifadagi Lagranjianlar orasida eng oddiy Lagranjianga ega va 2) kuchli o‘zaro ta’sir fizikasini sifatli tavsiflash uchun barcha kerakli jihatlarga ega. Bu g‘oyalar [D15, D39]larda ishlab chiqilgan yondashuvimizning asosini tashkil qildi va biz IV bobda shu asnodagi tegishli tadqiqotlarimizni taqdim etdik.

Model fenomenologik bo‘lsa-da, biz boshqa yondashuvlar va eksperimental ko‘rsatkichlar bilan solishtirdik, kuchli o‘zaro ta’sirlashuvchi sistemalarda qo‘llanilishi bo‘yicha testlarni o‘tkazdik. Yadro materiyasi bo‘yicha birlamchi tadqiqotlarimiz [D15] shuni ko‘rsatdiki, Lagrangiandagi modifikatsiya qilingan Skirmi qismi erkin fazodagiga o‘xshab, yadroviy materiyaning yuqori zichliklardagi singulyarlikka qulashini oldini olish uchun javobgardir. Bu xuddi erkin fazodagi Lagrangianning Skirmi qismi chekli razmerdagi solitonlarni barqarorlashtirish uchun javobgarligiga o‘xshashdir. Modifikatsiyalarimiz shuni ko‘rsatdiki, modelimiz parametrlarining ba’zi qiymatlarida cheksiz va isospin-assimetrik yadro materiyasining xossalari simmetrik yadro materiyasining to‘yingan nuqtasi ρ_0 atrofida yaxshigina tavsiflanishi mumkin.



3-rasm. Neytron yulduzi massasining radiusiga bog’liqligi. Yadro materiyasi siqiluvchanligining qiymati $K_0 = 270$ MeV va simmetriya energiyasising qiymati $\varepsilon_S(\rho_0) = 32$MeV qilib tanlab olingan. Uzluksiz, uzlukli va nuqtali chiziqlar simmetriya energiyasi parametri L ning 30, 40, va 50 MeV qiymatlariga mos keladi. Boshqa parametrlarning qiymatlari dissertatsiyaning 4.2-jadvalida (Set III) keltirilgan.

Bundan tashaqari yadro materiyasi holat tenglamalarini yuqori zichlikli hududlarga ekstrapolyatsiya qilib, ekstremal sharoitlarda kuchli o‘zaro ta’sir qiluvchi sistemalarga modelimizning qo‘llanilishi borasida testlar o‘tkazdik. Biz neytron yulduzlar tuzilishini o‘rganib, asosiy g‘oyalarimizning to‘g‘rili-gini qo‘shimcha ravishda tekshirdik.

3-rasmda neytron yulduzi massasining radiusiga bogliqligi keltirilgan. Hisoblashlarimiz massasi ikki quyosh massasiga $\sim 2M_\odot$ teng neytron yulduzlarining xossalarini fenomenologik kuzatuvlarga bilan solishtirganda juda qoniqarli ifodalab berdi.

V bobda tadqiqotlarimiz kengaytirilib, yondashuvimiz SU(3) sektorga umumlashtirilgan va yadro materiyasidagi giperonlarning xossalari muhokama qilingan. Xususan, yadro mihitidagi g‘alati barionlarning xossalari kaonning yadro muhitidagi xossalariga sezgirligini ko‘rsatdik. Ushbu yondashuvimizda ham adron xususiyatlarining yadro muhitidagi modifikatsiyalarining to‘g‘riligini natijalarimizni boshqa modellardagi natijalar bilan taqqoslash orqali muhokama qildik. Dissertatsiyaning oldingi boblarida aytib o‘tganimizdek, nuklonlarning xususiyatlari yadro muhitida o‘zgarishlarga uchraydi va nuklonlarning o‘zi yadro materiyasini tashkil etganligi sababli, yadro materiyasining xossalarining mos ravishda o‘zgarishiga olib keladi. Xuddi shu asnoda, yadro muhitidagi giperon ham xossalarini o‘zgartiradi. Neytron yulduzlari va giperyadrolarni yanada realroq tavsishlash uchun giperonlarning xossalarini ham yadro muhitida qanday o‘zgarishini tushunib yetishimiz kerak.

An’anaviy, g‘alati bo‘lmagan yadro materiyasi va uning tarkibiy qismlari bo‘yicha ko‘plab eksperimental hamda nazariy ishlar o‘nlab yillar davomida yadro materiyasi zichligining keng diapazonida o‘rganilgan bo‘lsa-da, yadro materiyasidagi giperonlar nisbatan kamroq o‘rganilgan (masalan, [41]ga qarang). Tadqiqotlarning aksariyati giperon-nuklon (YN) o‘zaro ta’siriga asoslangan. Misol uchun, Beane va boshqalar [80] yadroviy moddadagi Σ^--ning energiya siljishlarini aniqlash uchun panjaralar-KXDsidan foydalangan holda $n\Sigma^-$-sochilish fazalaridagi siljishlarni hisoblab chiqdi. Boshqa tadqiqotlarda [81, 82] esa YN potensiali effektiv maydon nazariyasi asosida qurilgan va yadro materiyasidagi giperonlarning xossalarini tekshirish uchun Brukner-Xartri-Fok (BHF) yaqinlashuvidan foydalanilgan. Yadro materiyasidagi giperonlarning xossalarini o‘rganish uchun zichlikning funksional nazariyalari ham ishlatilgan (sharhlovchi maqolaga [41] qarang).

Dissertatsiyaning V bobida biz nuklon va Δ izobara bilan birgalikda giperonlarning massa o‘zgarishlarini tekshirishning yana bir oddiy tizimini taklif qildik. Biz yadro materiyasida nuklon xossalari qanday o‘zgarishini kiral topologik soliton modellari [D7, D8, D14, D15] asosidagi bilimlarimiz doirasida qarab chiqdik, ya’ni yadro muhitidagi g‘alati bo‘lmagan barionlarning xossalaridaga o‘zgarishlarni sinchkovlik bilan tekshirishlar va turli xil form faktorlarini hisoblashlar asosida bajargan bilimlarimizdan foydalandik.

Bizning maqsadimiz yadro muhitida modifikatsiya qilingan modelning SU(2) versiyasini SU(3) versiyasiga sodda tarzda kengaytirish edi. Shunday qilib, biz yadro moddasidagi giperonlarni o‘rganish uchun oldingi tahlillarni umumlashtirdik. Maqsadga [83]da keltirilgan SU(3) Skirmi modelidan foydalanib, yadro materiyasida modelning tegishli parametrlarini zichlikka bog‘liq ravishda o‘zgartirish orqali erishdik. Hisoblashlarni va umumlishtirishlarni sodda tarzda olib borish uchun, birinchi navbatda, faqat SU(2) sektordagi mezon dinamikasining modifikatsiyalarini ko‘rib chiqdik. Biroq kaon xossalarining yadro muhitida o‘zgarishlarga duchor bo‘lishi ham ma’lum [84, 85]. Shulardan kelib chiqib, yadro muhitidagi kaon xossalarini zichlikka oddiy chiziqli bog‘lanishda o‘zgartirdik. SU(2) sektordagi umumiy dinamika SU(3) sektoriga umumlashtirish jarayonida saqlanib qoldi va model [D15, D21]larda muhoikama qilingan g‘alati bo‘lmagan sektordagi fenomenologiyani to‘g‘ri tushuntirib berishlari o‘zgarishsiz qoldi. Natijada, umumiylik saqlanib qoldi va yondashuvimiz kaonning yadro muhitidagi modifikatsiyasi SU(3) barionlarning xossalarini o‘zgarishiga qanday ta’sir qilishi haqida oddiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

1-jadavalda oktet barionlari massalarining yadro materiyasidagi o‘zgarishi kelritilgan. Jadavaldan yadro muhitidagi barionlar massalairining o‘zgarishlari kaon xossalarining yadro muhitidagi o‘zgarishlariga ta’sirchanligini kuzatish mumkin.

1-jadval. Oktet baryonlari massalarining yadro materiyasida o’zgarishi. Bu yerda C kaon massasining yadro muhitida o’zgarishini ifodalovchi parameter (detallari uchun disseratsiyaning V bobiga qarang). Hamma massalar MeV birligida berilgan.

Baryon	Experimental mass	Free space mass	Mass at $\rho = \rho_0$ $C = 0$	Mass at $\rho = \rho_0$ $C = 0.2$
N	939	939*	923*	923*
Λ	1115	1075	1004	960
Σ	1189	1210	1236	1122
Ξ	1315	1302	1221	1088

VI bobda simmetrik yadro materiyasi, neytron materiyasi va g‘alati materiya kabi turli yadro muhitlaridagi holat tenglamalarini ko‘rib chiqilgan. Bu bobda biz holat tenglamalaridan kelib chiqadigan natijalar yadro materiyasining fenomenologiyasi bilan yaxshi mos kelishini ko‘rsatdik. Shuningdek, SU(3) barionlari massalari har xil turdagi yadro muhitlarida qanday o'‘zgarishlarga duchor bo‘lishini muhokama qildik. Xususan, biz nosimmetrik materiya, assimetrik materiya, neytron materiya va g‘alati barion materiyadagi energiya jihatidan past qatlamlardagi SU(3) barionlarining muhitdagi massalari modifikatsiyasini o‘rtacha pion maydoni yondashuviga asoslangan holda izchil ravishda o‘rganib chiqdik [86]. Bu yo‘nalishdagi umumiy g‘oyaga Edvard Vittenning mashhur ilmiy maqolasida [87] asos solingan. Katta N_c (ranglar soni) limitida nuklonni N_c valent kvarklarining o‘rtacha mezon maydonida bog‘langan holat sifatida tavsiflash mumkin. Bu o‘rtacha meson maydoni esa, o‘z navbatida, N_c valent kvarklarni mavjudligi tufayli paydo bo‘lishi bilan birga mezonik kvant holatlarining paydo bo‘lishi $1/N_c$ omil darajasida qiyinligidadir. Bu yondashuv yengil va bitta o‘gir kvarkli barionlarning turli xususiyatlarini birlashgan tarzda tavsiflash uchun muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Pion o‘rtacha maydon yondashuvining asosiy g‘oyasi pion o‘rtacha maydon yondashuvini aniq amalga oshiradigan kiral kvark-soliton modeli [86] doirasida dinamik parametrlarni hisoblashda emas, balki barcha dinamik parametrlarni tajribaga asosan aniqlashdadir. Masalan, barion dekupletining massalarini barion okteti va Ω barion massasi haqidagi tajriba ma’lumotlaridan foydalanib aniqlashtirish mumkin [88].

